

## TOTALIZATOR O‘YINI QIMOR VA TAVAKKALCHILIKKA ASOSLANGAN O‘YINLARNING SALBIY OMILLARI

ADPI. Pedagogika va psixologiya  
kafedrasi katta o‘qituvchisi PhD.  
U.T.Shobduraximova

**Annotatsiya:** ushbu maqolada totalizator o‘yini qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarning salbiy omillari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** totalizator, internet, onlayn qimor o‘yinlari, g‘arazli jinoyatlar, bukmekerlik faoliyati, totalizator kompaniyalari, zamonaviy qimor, progressiv giyohvandlik.

Bugungi galaballashuv jarayonida onlayn qimor o‘yinlari ayrim toifadagi insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bunday o‘yinlar natijasida nafaqat moliyaviy ta’sirga, balki qaramlikni keltirib chiqaruvchi hissiy ta’sirga ham tushib qolish holatlari ko‘p uchramoqda. Hozirgi paytda internetsiz kunimizni tasavvur qilish qiyin. Bu tabiiy, bir kun internet ishlatmang, o‘zingizni zamondan orqada qolganday his etasiz. Ayniqsa, yoshlar internetda soatlab o‘yin o‘ynamoqda. Aholi orasida aynan internetdagi totalizator o‘yiniga qiziqish ortayotganini gap-so‘zlardan ham anglash oson.

Onlayn qimor ruhiy kasallikka olib keladi, uning nomi – ludomaniya. Qimorga qaramlik – bu ko‘plab salbiy psixologik, jismoniy va ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan progressiv “giyohvandlik” hisoblanadi. Totalizator qurboni topgan pulini o‘yinlarda isrof qiladi, oilasiga moddiy zarar yetkazadi, birovlardan qarz, bankdan kredit olib, tubi ko‘rinmas jarlikka qulay boshlaydi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi bir necha yil ichida global miqyosda totalizator o‘ynash darajasi oshgan. Bu illat tufayli bir necha salbiy oqibatlar yuzaga keladi[2].

Totalizator o‘zi nima? U fransuzcha «totalisateur» so‘zidan olingan bo‘lib, hisoblash, yakunlash ma’nolarni birdiradi. Oddiy aytganda, totalizator bu – mo‘maygina pul yutib olish maqsadida bukmeykerlik kompaniyasiga pul tikish deganidir. Ya’ni biror-bir bukmeykerlik kompaniyasida ro‘yxatdan o‘tasiz. O‘yin stavkalarini tashkil qiluvchi platforma hisob raqamiga pul tashlaysiz. Unda istagan odam biror-bir sport o‘yini voqealari, natijalarini oldindan taxmin qiladi va shu taxmin uchun pul tikadi. Yutuq miqdori taxmin bilan natijaning qanchalik to‘g‘ri kelishiga bog‘liq. Sizning taxminingiz to‘g‘ri chiqsa, sizga yutuq chiqadi. Ustama pul ham berilishi mumkin. Agar taxminingiz o‘zini oqlamasa, siz tikkan pul kuyadi[1].

Tarixga nazar tashlasak, Yevropada dastlab otlar poygasiga pul tikish boshlangan. Lekin bugungi kunga kelib, deyarli barcha sport turlarida totalizator o‘ynaladi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, totalizator o‘yini qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar tarkibiga kiradi. Dastlab qo‘shimcha daromad topish, keyinchalik “jazava” sirtmog‘iga tushib, yutqazilgan pulning o‘rnini qoplash maqsadida kunlab, haftalab, oylab va hatto yillab ketgan vaqt natijasida inson o‘z shaxsiy taraqqi-yoti uchun investitsiya qilishi kerak bo‘lgan bebaho ne’matini yo‘qotadi[1].

Tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar insonda umidsizlik va nochorlik hissini keltirib chiqaradi. Ular depressiya, migren, ichak kasalliklari va stress bilan bog‘liq boshqa muammolarga duch keladi. Yirik summani yutqazish inson huzur-halovatini yo‘qotadi. O‘yinga berilib ketganlar yotganida ham, turganida ham, har doim pul tikib, yutish haqida o‘ylaydi. Zararli oqibatlari tufayli ko‘plab mamlakatlarda qimor o‘yinlariga qaramlik sog‘liqni saqlash sohasining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Inson o‘ziga, yaqinlariga va xayrli ishlarga ajratishi kerak bo‘lgan mablag‘larni asossiz tarzda yo‘qotadi. Moliyaviy qiyinchiliklar sabab odamlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatlar ko‘payadi.

Milliy urf-odatlarimiz va mentalitetimizga, shuningdek, diniy qarashlarimizga yot bo’lgan qimor o’yinlarini noqonuniy ravishda tashkil etish holatlari, ayniqsa, onlayn tarzda ommalashib, o’smir va yoshlarni o’z domiga tortayotgani achinarli holatlardan biridir. Hattoki, bunday o’yinlarda ko’p miqdoridagi pulini yutqazib qo’yib, oxir-oqibat o’z joniga qasd qilish yoki yutqazib qo’ygan pulini to’lash uchun jinoyat sodir qilish holatlari ham yuz bermoqda. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda respublikada totalizator va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirish va albatta, bunday xizmatlarni reklama qilish noqonuniy hisoblanadi. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o’yinlarni tashkil etish yoki o’tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog’i provayderlari tomonidan xizmatlar ko’rsatish, tegishli dasturiy ta’minotdan nusxa ko’paytirish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo’llanilganidan keyin sodir etilgan bo’lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi”. Bu borada xorij tajribasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, Germaniyada qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o’yinlar bilan bog’liq jinoyatlar Jinoyat kodeksining “G’arazli jinoyatlar” bo’limidan joy olgan hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o’yinlarda ishtirok etgan shaxs uchun belgilangan jazo esa 6 oygacha etib belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o’yinlarning qonunga xilof ravishda tashkil etilishi va o’tkazilishi fuqarolarga nafaqat ruhiy ta’sir o’tkazadi, balki moliyaviy qaramlikka duchor etib, oilaviy nizolarga ham sabab bo’ladi. Shuningdek, ushbu faoliyat naqd pullarning bankdan tashqari muomalasi ko’payishiga, soliqlar va boshqa to’lovlarni to’lashdan bo’yin tovlanishiga yo’l ochadi hamda shu orqali mamlakatimizning iqtisodiy ravnaqiga putur yetkazadi. Shunga ko’ra, otanalar tomonidan o’z farzandlarining bo’sh vaqtlaridan unumli foydalanishi ustidan muntazam nazorat olib borilishi yuqoridagi kabi salbiy illatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Иванова О. А. Азартные игры как угроза общественной нравственности//Молодой ученый. – 2013. – №9. – С. 299-302.
2. Иванова О.А. Общественная опасность нелегального игорного бизнеса/О.А. Иванова//Научная дискуссия: вопросы юриспруденции: 35 сб. ст. по матер. XL междунар. заоч. науч.-практ. конф. М.: Изд-во «Интернаука», 2015. № 8 (36). С. 75-80
3. Xosilbekovna, S. F. (2024). PSIXOLOGIK HOLATLARGA TUSHISHNI OLDINGI OLIH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(4), 56-58.
4. Xosilbekovna, S. F. (2024). SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF INCREASING WOMEN'S LABOR EFFICIENCY ARE RELATED TO THE TOPIC. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(2), 440-443.